ELEKTRON HUKUMAT INDEKSINING O'SISHI VA DAVLAT XIZMATLARI SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON MISOLIDA KADR SALOHIYATINING O'RNI

Mamaziyayev Xasan Zokirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Ekonometrika kafedrasi assistent-stajori, Samarqand, O'zbekiston

O'zbekiston BMT elektron hukumat rivoji indeksi (EGDI) bo'yicha 2020-yildagi 87-o'rindan 2024-yilda 63-o'ringa ko'tarilib, birinchi marta «juda yuqori» guruhga kirdi [1; 2]. Biroq bu natija davlat xizmatlarining fuqaro uchun amaldagi sifati ham shunga mos yaxshilanganini bildiradimi, degan savol ochiq qolmoqda. Tezisda shu savolga indeks tarkibini tahlil qilish va davlatlararo regressiya orqali javob izlanadi.

EGDI uch tarkibiy indeksning o'rtachasi bo'lgani uchun 2020–2024-yillardagi 0,1334 ballik o'sish (0,6665 dan 0,7999 gacha) tarkibiy hissalarga ajratildi (1-jadval). Natijaga ko'ra, o'sishning deyarli hammasi telekommunikatsiya infratuzilmasi hisobiga ta'minlangan, onlayn xizmatlar indeksi esa pasaygan.

1-jadval. O'zbekiston EGDI o'sishining tarkibiy hissalari, 2020–2024-yillar

Tarkibiy indeks	2020	2024	EGDIga hissa
Telekommunikatsiya infratuzilmasi (TII)	0,4736	0,8769	+0,1344
Inson kapitali (HCI)	0,7434	0,7580	+0,0049
Onlayn xizmatlar (OSI)	0,7824	0,7648	−0,0059
Jami EGDI	0,6665	0,7999	+0,1334

Manba: BMT E-Government Survey ma'lumotlari asosida [2]; hissalar muallif hisob-kitobi (indeks o'zgarishining uchdan biri).

Onlayn xizmatlar bo'yicha jahon o'rni shu davrda 46-dan 59-ga tushgan [2]. Boshqacha aytganda, tarmoq va qamrov kengaygan, ammo xizmatlarning o'zi indeks nuqtayi nazaridan oldinga siljimagan.

Davlatlararo tahlil uchun 184 davlat bo'yicha quyidagi model baholandi:

$$EGDI_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot GE_i + \beta_2 \cdot \ln(GDPpc_i) + \varepsilon_i, \qquad (1)$$

bunda GE — Jahon bankining boshqaruv samaradorligi bahosi (2023) [5], GDPpc — jon boshiga YaIM (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha). Standart xatolar geteroskedastiklikka mustahkam (HC3) usulida hisoblandi. Boshqaruv samaradorligi koeffitsiyenti 0,060 ($p < 0,01$), ln(YaIM) koeffitsiyenti 0,129, $R^2 = 0,793$. O'zbekiston uchun model kutilgan EGDI ni 0,585 deb baholaydi, haqiqiy qiymat esa 0,800 (qoldiq +0,214). Demak, mamlakat raqamli ko'rsatkichi boshqaruv sifati va daromad darajasi bergan «kutilgan» darajadan ancha oldinda. Bu bog'liqlik, sabab-oqibat emas; Ramsey testi chiziqli shaklni rad etgani ham natijalarni ehtiyotkorlik bilan izohlashni talab qiladi.

Kadr salohiyati bu tafovutni yopishda asosiy bo'g'in bo'lishi mumkin. 2022-yilgi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonun lavozimlarga konkurs asosida tanlashni va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga bog'liq mukofotni nazarda tutadi [3]. Shu bilan birga 2025-yil sentyabrida «bir darcha» tamoyilida 500 dan ortiq xizmat ko'rsatilayotgani, 200 dan ortiq xizmat esa hamon eski usulda

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bajarilayotgani bildirilgan [4]. Evans va Raush ma'lumotlariga ko'ra, malakaga asoslangan tanlov va barqaror martaba tizimi iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liq [6].

Takliflar: birinchidan, xodimlar KPI siga muddatga rioya va birinchi murojaatda hal etilgan arizalar ulushi kabi jarayon ko'rsatkichlarini kiritish; ikkinchidan, malaka oshirishda xizmat jarayonini qayta loyihalash ko'nikmalariga ustuvorlik berish; uchinchidan, xizmat kesimida muddat, rad etish va shikoyatlar statistikasini ochiq e'lon qilish. Bu ma'lumotlar bo'lsa, «kadr salohiyati – jarayon – natija» zanjirini miqdoriy tekshirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. United Nations. E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York: UN DESA, 2024.
2. Raqamli hukumat rivoji reytingi: O'zbekiston ko'rsatkichlari dinamikasi (UN DESA ma'lumotlari asosida). URL: https://dgov.uz/en/ratings/detail/
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonuni (2022). URL: https://anhor.uz/news/civil-service/
4. Prezident adliya tizimida davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish taqdimoti bilan tanishdi, 05.09.2025. URL: https://podrobno.uz/cat/politic/v-uzbekistane-kolichestvo-gosuslug-uvelichat-pochti-do-tysyachi-za-tri-goda/
5. World Bank. Worldwide Governance Indicators: Government Effectiveness (estimate), 2023. URL: https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators
6. Evans P., Rauch J. E. Bureaucracy and Growth: A Cross-National Analysis of the Effects of "Weberian" State Structures on Economic Growth // American Sociological Review. 1999. Vol. 64, No. 5. P. 748–765.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.